

IBN MOLIKNING “ALFIYA” ASARI VA NOSIR AL-MUTARRIZIYNING “RISALATUN FI-N-NAHV” ASARI: QIYOSIY TAHLIL

Abduraximova Mubinaxon Erkinjon qizi

Alfraganus universiteti Filologiya fakulteti

Arab filologiyasi yo'nalishi talabasi

Raxmonov Azimjon Komilovich

Alfraganus universiteti Filologiyasi fakulteti

Tillarni o'qitish markazi rahbari

Annotatsiya. Mazkur maqolada klassik arab tilshunosligining ikki yirik namoyandasi – Ibn Molik va Nosir al-Mutarriziyning nahv ilmi rivojiga qo'shgan hissasi qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda Ibn Molikning “Alfiya” hamda Nosir al-Mutarriziyning “Risalatun fi-n-nahv” asarlarining yaratilish tarixi, tuzilishi, mazmuni va grammatik masalalarni yoritish uslublari o'rganiladi. Shuningdek, har ikki asarda nahv terminologiyasidan foydalanish, grammatik qoidalarni bayon etish metodlari, dalillash usullari hamda ularning ta'limiy va ilmiy ahamiyati qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida «Alfiya»ning didaktik yo'nalishi va “Risalatun fi-n-nahv”ning ilmiy-nazariy xususiyatlari o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlar aniqlanib, ularning klassik arab grammatikasi taraqqiyotidagi o'rni hamda zamonaviy arab tilini o'qitish metodikasidagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Ibn Molik, Nosir al-Mutarriziy, Alfiya, “Risalatun fi-n-nahv”, arab grammatikasi, nahv, sarf, qiyosiy tahlil, ilmiy meros, arab tilshunosligi.

Аннотация. В статье проводится сравнительный анализ научного наследия двух выдающихся представителей классического арабского языкознания — Ибн Малика и Насира ал-Мутарризия. Исследуются история создания, структура, содержание и научные особенности трудов «Альфия» и «Рисалатун фи-н-нахв». Особое внимание уделяется методам изложения

грамматических правил, использованию терминологии, способам аргументации и дидактическим особенностям обоих произведений. В результате исследования выявляются общие и отличительные черты данных трудов, определяется их значение в развитии классической арабской грамматики и возможности использования их научного наследия в современной методике преподавания арабского языка.

Ключевые слова: Ибн Малик, Насир ал-Мутарризий, Альфия, Рисалатун фи-н-нахв, арабская грамматика, нахв, сарф, сравнительный анализ, научное наследие.

Abstract. This article presents a comparative analysis of the scholarly contributions of two prominent representatives of classical Arabic linguistics, Ibn Malik and Nasir al-Mutarrizi, to the development of Arabic grammar. The study examines the historical background, structure, content, and linguistic features of Ibn Malik's *Alfiyya* and al-Mutarrizi's *Risālatun fī al-Naḥw*. Particular attention is paid to their methods of presenting grammatical rules, the use of grammatical terminology, approaches to linguistic argumentation, and their educational significance. The research identifies both the similarities and differences between the two works and evaluates their contribution to the development of classical Arabic grammar as well as their relevance to contemporary Arabic language teaching methodology.

Keywords: Ibn Malik, Nasir al-Mutarrizi, *Alfiyya*, *Risālatun fī al-Naḥw*, Arabic grammar, syntax (naḥw), morphology (ṣarf), comparative analysis, linguistic heritage, Arabic linguistics.

Arab tilshunosligi tarixida nahv ilmining rivojlanishida Ibn Molik va Nosir al-Mutarriziy muhim o‘rin egallaydi. Nosir al-Mutarriziy XII–XIII asrlarda Movarounnahr ilmiy muhitida faoliyat yuritib, arab grammatikasi, lug‘atshunoslik va balog‘at sohalarida salmoqli ilmiy meros qoldirgan. Uning “Risalatun fi-n-nahv” asari nahv qoidalarini ilmiy asosda bayon qilishi, grammatik hodisalarni tahliliy yondashuv bilan izohlashi hamda arab tilining nazariy masalalarini yoritishi

bilan ajralib turadi. Ushbu asar Movarounnahr nahv maktabining ilmiy an'analarini aks ettiruvchi muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Ibn Molik esa arab grammatikasini she'riy shaklda tizimlashtirgan buyuk nahvshunos sifatida tanilgan. Uning "Alfiya" asari ming baytdan iborat bo'lib, nahv va ayrim sarf masalalarini ixcham va yod olishga qulay usulda bayon etadi. Asar asrlar davomida islom olamidagi madrasalarda asosiy grammatik qo'llanma sifatida o'qitilgan va unga ko'plab sharhlar yozilgan. Mutarriziyning ilmiy-nazariy yondashuvi hamda Ibn Molikning didaktik uslubi bir-birini to'ldirib, arab nahv ilmining rivojlanish bosqichlarini yaqqol namoyon etadi. Shu bois ularning ilmiy merosini qiyosiy o'rganish klassik arab tilshunosligining taraqqiyot yo'nalishlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Ibn Molik XIII asrning yirik arab tilshunoslaridan biri hisoblanadi. Uning to'liq ismi Muhammad ibn Abdulloh ibn Malik at-Toiy al-Jayyaniy. U 1204-yili Andalusiyada (Ispaniya) tavallud topgan va Damashqda vafot etgan⁶². Yoshligida Qur'onni yod olishni boshlagan va keyinchalik qiroat, diniy ilmlar, nahv (arab tili grammatikasi) hamda lug'at ilmlarini chuqur o'rgangan. Keyinchalik Damashqqa ko'chib o'tgan.

U dastlab arab tilini Sobit ibn Xayor al-Kiloiy al-Muqridan o'rgangan. Keyinchalik ilm olish uchun Mashriqqa safar qilgan. Bu safar haj ibodatini ado etish va ilmiy rihlat maqsadida bo'lgan. "Ibn Molik juda ko'p mutolaa qiladigan, yod olgan narsalarini yozmaydigan kishi edi. Uni doim yo namoz o'qiyotgan, yo tilovat qilayotgan yoki ilg'or o'qiyotgan holda ko'rish mumkin edi", – deyishadi roviylar. U mashhur Basra va Kufa nahviy maktablari g'oyalarini uyg'unlashtirgan bo'lib, uning ilmiy yondashuvi ixchamlik, mantiqiylik va mustahkam dalillarga tayanganligi bilan ajralib turadi⁶³.

"Siyar A'lam an-Nubalo" kabi tarjimai hol manbalarida ta'kidlanishicha, u Shom, Halab va Damashqda faoliyat yuritgan, o'qituvchilik bilan shug'ullanib,

⁶² Fleisch, H. (1986). "Ibn Mālik". Encyclopaedia of Islam.

⁶³ Mutaxassislikning nazariy masalalari. Darslik. S. Rustamiy, M. Nosirova, A. Akmalxonov. Toshkent - 2021. 6-8 betlar

ko'plab shogirdlar yetishtirgan. Ibn Molikning asarlari arab tilini o'rganishda o'quvchilar uchun yengillik yaratgan. U nahv qoidalarini she'riy shaklda ifodalab, yodlashni osonlashtirgan. Shu sababli u arab tilshunosligi tarixida "nahv ilmining ustuni" sifatida e'tirof etiladi. Sabahiy: "Ibn Molik qiroat ilmining imomi va uning sharhlovchisi edi, uning metindek qattiq, kuchli va mustahkam dini bor edi", – deb yozadi. U o'z davrida arab tilshunosligining eng yirik vakillaridan biri sifatida tanilgan.

Ibn Molik arab tilining sarfu nahviga oid 90 ga yaqin ilmiy asarlar yozgan. Mashhur asarlaridan biri bu "Alfiya". "Alfiya" so'zining lug'aviy ma'nosi minglik demakdir. Asar 1000 misradan va 512 betdan iborat bo'lib, unda arab grammatikasining asosiy qoidalari, ya'ni sarf va nahv qoidalari she'riy baytlar orqali ifodalangan. "Alfiya" arab dunyosida eng ko'p o'rganilgan grammatik qo'llanmalardan biriga aylangan. Asar "Ajurrumiya" bilan bir qatorda Qur'on maktablarida eng ko'p o'qitilgan kitoblardan biri bo'lgan.

"Alfiya" manzumasining boblari, mavzular ketma-ketligi va ilmiy ma'lumotlar tartibi muallifning chuqur ilmiga ishora qiladi. "Alfiya" ham boshqa nahvchilarning asarlari kabi so'z va uning turkumlaridan boshlanadi. Boshida ism, fe'l, harfni grammatik talqin qiladi. Ammo Ibn Molik bu so'z turkumlarining xususiyatlarini juda qisqa ta'riflab asosiy e'tiborni e'robga qaratadi.

Bu boblarning barchasini asosiy mavzu – so'z turkumlarinig sintaktik munosabalarini bayon qilishga kirish deb qarash mumkin. Bu sintaktik munosabatlarning barcha mumkin bo'lgan ko'rinishlarini va ayrim bir turkum so'zlarning ifoda qilinishidagi o'ziga xos xususiyatlarini to'liq, batafsil bayon etadi. "Alfiya" madrasalarda asrlar davomida asosiy qo'llanma bo'lib kelgan⁶⁴.

Ibn Molik qalamiga mansub "Alfiya" ning bir necha sharhlari bor. Asar Ibn Aqil, Al-Suyutiy, Ibn Hisham kabi ko'plab grammatiklar tomonidan keng sharh qilingan.

1. Ibn Molikning o'zi yozgan sharh. Imom Zahabiy "Tarixu-l-Islom" kitobida Ibn

⁶⁴ Ahmad al-Maqqariy. Nafh at-Tib, nashr: Al-Maktabah al-Tijariyah al-Kubra, Qohira, 1949.

Molikning tarjimai holida “Uning “Xulosa” nomli kitobi va unga yozgan sharhi bor” deya qayd etgan.

2. Muallifning o’g’li Badruddin Muhammad ibn Muhammad ibn Abdulloh ibn Molik Toiy Jayyoniy Andalusiy Dimashqiy (vafoti: hijriy 686-yil) sharhi. Bu sharh “Ibn Musannifning sharhi” nomi bilan ham tanilgan.

3. Ibn Aqilning “Sharh al-Alfiya” si eng mashhur va keng tarqalgan sharh. Arab dunyosida madrasalarda asosan shu sharh asosida “Alfiya” o’qitilgan. Grammatik qoidalarni keng izohlaydi, ko’plab misollar keltiradi⁶⁵.

4. “Tuhfatul-Marja” Ibn Hishom v al-Ansoriy "Alfiya"ga yozilgan eng ilmiy va chuqur sharhlardan biri. Unda grammatik qoidalar keng tahlil etiladi.

5. Zamonaviy davrda ham “Alfiya” asariga sharhlar yozilgan. Eng mashhurlaridan biri Shayx Muhammad ibn Solih al-Usayminning sharhi bo’lib, u asarni sodda va tushunarli tarzda izohlagan⁶⁶.

Ulamolar nazdida, “Alfiya” yana bir boshqa nom – “Xulosa” nomi bilan ham mashhur bo’lgan. Hatto ba’zi ulamolar yozgan sharhlarini nomlashda ham shu nomga suyanishgan:

1. “Maqosidu-sh-shofiya fi sharhi Xulosati-l-kofiya” (Shotibiy)
2. “Koshifu-l-xososo an alfazi-l-Xulosa” (Ibn Jazariy)
3. “Bulg’otu zi-l-xososo fi halli-l-Xulosa” (Muhammad ibn Muhammad Asadiy)
4. “Rof’u-l-xososo an qurroi-l-Xulosa” (Ibn Hishom Ansoriy)

Sharhlar tufayli “Alfiya” nafaqat yodlash uchun, balki chuqur grammatik bilim olish uchun ham muhim qo’llanma bo’lib qolmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Ibn Molikning “Alfiya” asari hamda Nosir al-Mutarriziyning “Risalatun fi-n-nahv” asari klassik arab nahv ilmining rivojlanishida alohida o’rin tutadi. Har ikki olim arab grammatikasi qoidalarini tizimlashtirish va ilmiy asosda bayon etishga salmoqli hissa qo’shgan. Biroq ularning metodologik yondashuvlari o’ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ibn Molik nahv va ayrim sarf

⁶⁵ Ibn Aqil. Sharh al-Alfiya Ibn Malik, nashr: Dar Inya’ al-Turath al-‘Arabi, Qohira, 1996. 1-jild

⁶⁶ Archive.org. Alfyyah Ibn Maalik lil Sarf wan Nahv.

masalalarini she'riy shaklda ixcham va yod olishga qulay tarzda ifodalagan bo'lsa, Nosir al-Mutarriziy grammatik masalalarni ilmiy-nazariy asosda tahlil qilib, ularni dalillar va izohlar bilan yoritishga alohida e'tibor qaratgan.

Qiyosiy tahlil natijasida aniqlanishicha, "Alfiya" asari ko'proq ta'limiy-didaktik yo'nalishga ega bo'lib, arab grammatikasini o'rganishda asosiy qo'llanmalardan biri sifatida asrlar davomida madrasalarda keng foydalanilgan. "Risalatun fi-n-nahv" esa nahv masalalarini chuqur ilmiy tahlil qilishi bilan ajralib turadi va Movarounnahr nahv maktabining muhim ilmiy manbalaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan mazkur asarlar bir-birini to'ldirib, klassik arab tilshunosligining nazariy va amaliy taraqqiyotini aks ettiradi.

Bugungi kunda ham Ibn Molik va Nosir al-Mutarriziyning ilmiy merosi arab tili grammatikasini o'rganish va o'qitishda o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ularning asarlari nafaqat tarixiy-lingvistik manba, balki zamonaviy arab tilini o'qitish metodikasini takomillashtirishda ham muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bois ushbu ikki olimning nahvga oid qarashlarini qiyosiy o'rganish klassik arab tilshunosligi taraqqiyotini chuqurroq anglash va uning bugungi ta'lim tizimidagi ahamiyatini belgilashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fleisch, H. (1986). "Ibn Mālik". Encyclopaedia of Islam.
2. Mutaxassislikning nazariy masalalari. Darslik. S. Rustamiy, M. Nosirova, A. Akmalxonov. Toshkent - 2021. 6-8 betlar
3. Ahmad al-Maqqariy. Nafh at-Tib, nashr: Al-Maktabah al-Tijariyah al-Kubra, Qohira, 1949.
4. Ibn Aqil. Sharh al-Alfiya Ibn Malik, nashr: Dar Inya' al-Turath al-'Arabi, Qohira, 1996. 1-jild
5. Archive.org. Alfiyyah Ibn Maalik lil Sarf wan Nahv.
6. Рахмонов, А. К. (2025). АБУЛФАТХ БУРҲОНИДДИН НОСИР МУТАРРИЗИЙ-ЎРТА АСР ШАРҚ ИЛМИЙ МЕРОСИНИНГ ЁРҚИН НАМОЁНДАСИ. *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 549-560.

7. MUTARRIZIYNING “RISOLATUN FIN NAHV” ASARI MO‘JAZ GRAMMATIK MANBA. (2025). *Barqaror Taraqqiyot Va Rivojlanish Tamoyillari*, 3(4), 85-88. <https://uzresearchers.com/index.php/BTRT/article/view/2528>
8. Jo‘rayeva, M. A. “SHARHI MULLO” A RARE SOURCE.
9. Fatilloev, M. (2025). “MU’JAMU-L-UDABO” DA MOVAROUNNAHR OLIMLARI HAQIDA MA’LUMOT. *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 645-654.
10. Raximjonov, M. (2023). Al-Farg ‘oniyning falakiyot haqidagi qarashlari. *Alfraganus*, (2 (2)), 28-33.
11. Nugmanovich, R. M. Methods of Working on the Text in Uzbek Language Lessons. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(10), 234-237.
12. Tursunaliyeva, M. A. (2025). OGHIYNING “GULSHANI DAVLAT” ASARIDA HAMD VA NA’T QISMLARINI BERILISHI. *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 618-627.
13. Fatilloev, M., & Sh, S. (2020). Linguopoetic Analysis Of The Arabic Lexical Unit" Malak" In The Epic" Hayrat Ul-Abrar" By Alisher Navai. *THE AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE AND EDUCATION INNOVATIONS Учредители: The USA Journals*, 2(9), 493-498.
14. Xodi o‘g‘li, M. I. (2025, October). SAIDBEK HASANOV TAHLILIDA O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTINING ZAMONAVIY TALQINI. In *Conferences* (Vol. 1, No. 2, pp. 360-363).
15. Rustamova, M. B. Q., & Raxmonov, A. K. (2026). *Al-Mutarriziyning “Risalatun fi an-nahv” asarida ko‘makchi so‘zlarning semantik va sintaktik xususiyatlari*. *Science Time Journal*, 4(5/1), 487–492.
16. Жураева, С. Х. (2024). ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ МОЛОДЁЖНОГО СЛЕНГА В РУССКОМ ЯЗЫКЕ. *XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR*, 1(2), 531-536.